



FROM FREE THOUGHT TO A SINGLE IDEOLOGY: THE FORMATION OF THE SOVIET PRESS IN TURKESTAN

Nilufar Namazova

*University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan
Associate Professor, Candidate of Philological Sciences
Tashkent, Uzbekistan*

n.nilufarxon@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0006-5945-8931>

<https://doi.org/10.36078/1783402813>

Abstract. This article examines the emergence and institutionalization of the Soviet press in Turkestan, focusing on its organizational development and ideological functions. Following the October Revolution of 1917, the Bolsheviks restructured the media landscape by eliminating “bourgeois publications and replacing national newspapers and journals with a party-oriented press. Using publications such as *Mehnatkashlar O‘qi*, *Mehnatkashlar Tovushi*, *Ishtirokiyun*, *Turkiston*, and *Qizil O‘zbekiston* as examples, the article reveals the early experience of the Soviet press, the activities of local journalists, inequalities in material and technical resources, and the influence of centralized administration. Particular attention is paid to the transformation of the press into a tool of mass propaganda through compulsory subscriptions, the worker-peasant correspondent movement, wall newspapers, red corners, and red teahouses. Drawing on historical sources, the article also discusses the challenges faced by the local press in terms of paper supply, printing facilities, distribution networks, and personnel training. It argues that the Soviet press should be evaluated not only by its institutional growth but also by the increasing restriction on freedom expression and the subordination of journalistic initiative to administrative control. Although the Soviet press expanded institutionally and gained greater material and organizational resources, editorial independence, freedom of thought, and the ability to represent national interests became increasingly limited. The article emphasizes that, during the 1920s and 1930s, the centralization of the press through legislation, decrees, and party directives transformed it from an independent social platform into an instrument of ideological governance. The press of this period is therefore assessed as a contradictory phenomenon characterized by both institutional consolidation alongside increasing dependence on party-state control.

Keywords: Soviet press; Turkestan; Uzbek journalism; ideological policy; partisanship; worker-peasant correspondent; wall newspaper.

ERKIN FIKRDAN YAGONA MAFKURAGA: TURKISTONDA SHO‘RO MATBUOTINING SHAKLLANISH YO‘LI

Nilufar Namazova

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Toshkent, O‘zbekiston*

Annotasiya. Maqolada Turkistonda sho‘ro matbuotining shakllanish jarayoni, uning dastlabki tashkiliy bosqichlari, mafkuraviy vazifalari va institusional tizimga aylanish xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda 1917-yil oktyabridan keyin bolsheviklar tomonidan “burjua xarakteridagi nashrlar”ni tugatish siyosati orqali matbuot maydoni qayta qurilgani, milliy nashrlar o‘rnida partiyaviy yo‘nalishdagi yangi tipdagi matbuot vujudga kelgani yoritilgan. “Mehnatkashlar o‘qi”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Ishtirokiyun”, “Turkiston”, “Qizil O‘zbekiston” kabi nashrlar misolida sho‘ro matbuotining dastlabki tajribasi, mahalliy jurnalistlar faoliyati, moddiy-texnik ta‘minotdagi tengsizlik va markazlashgan boshqaruv ta‘siri ochib berilgan. Shuningdek, majburiy obuna, ishchi-dehqon muxbirlari harakati, devoriy gazetalar, qizil burchak va qizil choyxonalar orqali matbuotni ommaviy targ‘ibot vositasiga aylantirish jarayoniga alohida e‘tibor qaratilgan. Shu bilan birga, maqolada mahalliy matbuotning qog‘oz, bosmaxona, tarqatish tarmog‘i va kadrlar ta‘minoti bilan bog‘liq muammolari ham tarixiy manbalar asosida izohlangan. Sho‘ro davri matbuotini faqat nashrlar soni yoki tashkiliy kengayish nuqtayi nazaridan emas, balki erkin fikr maydonining cheklanishi, jurnalistik tashabbusning ma‘muriy nazoratga bo‘ysundirilishi nuqtayi nazaridan ham baholash zarurati mavjud. Sho‘ro matbuoti tashqi jihatdan kengayib, moddiy va tashkiliy imkoniyatlarga ega bo‘lgani holda, tahririy mustaqillik, erkin fikr va milliy manfaatlarni ifodalash imkoniyati tobora cheklanganini asoslaydi. Maqolada 1920–1930-yillarda matbuotning qonunlar, qarorlar va partiya ko‘rsatmalari orqali markazlashtirilishi uni mustaqil ijtimoiy minbardan mafkuraviy boshqaruv vositasiga aylantirgani ta‘kidlangan. Mazkur davr matbuoti institusional mustahkamlanish va ichki qaramlashuv o‘rtasidagi ziddiyatli jarayon sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: sho‘ro matbuoti; Turkiston; o‘zbek jurnalistikasi; mafkuraviy siyosat; partiyaviylik; ishchi-dehqon muxbiri; devoriy gazeta.

Kirish

Turkistonda sho‘ro matbuotining shakllanishi XX asr boshi o‘zbek jurnalistikasi tarixida eng murakkab, ziddiyatli va ko‘p qirrali jarayonlardan biri hisoblanadi. 1917-yil oktyabridan keyin hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar matbuotga faqat axborot tarqatuvchi vosita sifatida emas, balki jamiyatni yangi siyosiy mafkura asosida qayta qurishga xizmat qiladigan ta‘sirchan institut sifatida qaradilar. Shu bois, Turkistonda avvalgi milliy-ma‘rifiy matbuot an‘analari, jadid publisistikasining erkin fikrga asoslangan tajribasi va fevral inqilobidan keyin yuzaga kelgan nisbiy matbuot erkinligi qisqa vaqt ichida yangi siyosiy talablar bilan almashdi. Matbuotning ijtimoiy vazifasi, tahririy yo‘nalishi, moliyaviy ta‘minoti,

tarqatish tizimi va kadrlar siyosati markazlashgan partiyaviy boshqaruv doirasiga kiritildi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, sho‘ro matbuoti tarixi ko‘p yillar davomida, asosan, uning tashkiliy rivoji, nashrlar sonining ortishi, ishchi-dehqon ommasini siyosiy tarbiyalashdagi o‘rni nuqtayi nazaridan yoritib kelindi. Biroq mazkur jarayonni matbuot erkinligi, milliy so‘z taqdiri, jurnalistik tashabbusning ma‘muriy-siyosiy nazoratga bo‘ysundirilishi, axborot maydonining partiyaviylashuvi kabi mezonlar asosida qayta baholash bugungi jurnalistika tarixi uchun muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Sho‘ro matbuoti tarixiga oid ilk tadqiqotlardan biri A. Avloniyning “Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi” (Avloniy 2015) risolasi bo‘lib, unda bir qancha nashrlar tarixi bayon etilgan. Ziyo Saidning 1927-yili arab alifbosida chop etilgan “Burung‘i vaqtli matbuot tarixiga materiallar” (Ziyo Said 1927) kitobida o‘sha davrda chop etilgan nashrlar haqida ancha to‘liq ma‘lumotlar berilgan. Anqaboyning Botu so‘zboshisi bilan chiqqan “Fihrist yoxud xabar, maqola, she‘r va hikoya yozish yo‘llari” (Anqaboy 1927) risolasida ham mazkur davr matbuotining o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Hoji Muinning “Samarqand matbuoti tarixi” (Muin 1923) maqolasi Samarqandda chop etilgan gazeta va jurnallar haqida ancha to‘liq ma‘lumotlar berilgani bilan ahamiyatga ega. Sovet davrida matbuot bo‘yicha tadqiqot qilgan olimlarda T. Ernazarovning bir qancha kitoblari chop etilgan. Jumladan, “Turkistonda vaqtli matbuot (1970–1924)” (Ernazarov 1959) nomli kitobida bolsheviklar tomonidan chiqarilgan nashrlar o‘sha davr talablariga ko‘ra yoritilgan. T. Qoriniyozovning “Sovet O‘zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar” (Qoriniyozov 1958) kitobida sho‘ro matbuotining tashkil etilishi va rivojlanish jarayonlari haqida ham umumiy ma‘lumotlar qayd etib o‘tilgan. B. Qoriyevning “20-yillar o‘zbek sovet adabiyotining asosiy xususiyatlari. (Shu davr jurnallari materiallari asosida)” (Qoriyev 1967) mavzusidagi filologiya fanlari nomzodligi uchun yozilgan dissertasiyasida 30 ga yaqin jurnal haqida axborot berilgan. H. Saidovning tadqiqotida sovet axborot siyosati, matbuot tizimi haqida mulohazalar bildirilgan (Saidov 2022).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda Turkistonda sho‘ro matbuotining shakllanishi faqat yangi gazeta va jurnallar tashkil etilishi sifatida emas, balki matbuotning vazifasi, auditoriya bilan munosabati, kadrlar tizimi, tarqatish infratuzilmasi va mafkuraviy nazorat mexanizmlari tubdan o‘zgargan tarixiy jarayon sifatida tahlil qilinadi. Maqolada “Mehnatkashlar o‘qi”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Ishtirokiyun”, “Turkiston”, “Qizil O‘zbekiston” kabi nashrlar faoliyati orqali mahalliy sho‘ro matbuotining dastlabki tashkiliy tajribasi, unda jadid ziyolilari va

mahalliy jurnalistlarning ishtiroki, shu bilan birga, markaziy siyosiy talablar ta'sirida tahririy mustaqillikning cheklanib borishi ko'rsatib beriladi.

Tadqiqotning maqsadi — Turkistonda sho'ro matbuotining vujudga kelishi, institusional shakllanishi va mafkuraviylashuv jarayonini tarixiy manbalar asosida tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib: 1917-yildan keyin matbuot maydonida yuz bergan siyosiy-tashkiliy o'zgarishlarni yoritish; dastlabki sho'ro gazetalarining tashkil etilishi va ularning vazifalarini aniqlash; mahalliy matbuotning moddiy-texnik ta'minot, qog'oz, bosmaxona va tarqatish bilan bog'liq muammolarini tahlil qilish; matbuot orqali ommani mafkuraviy tarbiyalashda majburiy obuna, ishchi-dehqon muxbiri, devoriy gazeta, qizil burchak va qizil choyxonalarning o'rnini ko'rsatish; 1930-yillar oxiriga kelib matbuotning yagona partiyaviy axborot siyosatiga bo'ysundirilishi qanday yakunlanganini asoslash vazifalari belgilandi

Nazariy qism

Tadqiqotning nazariy asosini matbuotning jamiyatdagi ijtimoiy vazifasi, axborot maydonining siyosiylashuvi, partiyaviy matbuot konsepsiyasi hamda ommaviy kommunikatsiyaning mafkuraviy ta'sir mexanizmlariga doir ilmiy qarashlar tashkil etadi. Maqolada sho'ro matbuoti oddiy axborot tarqatuvchi vosita sifatida emas, balki jamiyatni yangi siyosiy g'oyalar asosida qayta tarbiyalash, omma ongini boshqarish va hokimiyat bilan auditoriya o'rtasida mafkuraviy aloqa o'rnatishga xizmat qilgan institut sifatida talqin etiladi.

Mazkur yondashuvda, avvalo, sovet matbuot nazariyasidagi partiyaviylik, sinfiylik, tashviqotchilik va tashkilotchilik tamoyillari muhim o'rin tutadi. Sho'ro davrida matbuot "kollektiv targ'ibotchi, tashviqotchi va tashkilotchi" sifatida baholangani uning asosiy vazifasi mustaqil jamoatchilik fikrini ifodalash emas, balki partiya siyosatini ommaga yetkazish bo'lganini ko'rsatadi. Shu ma'noda tadqiqotda matbuotning erkin ijtimoiy minbardan markazlashgan mafkuraviy boshqaruv vositasiga aylanish jarayoni nazariy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqoladagi tarixiy materiallar ham ushbu nazariy yondashuvni asoslaydi. Jumladan, sho'ro hukumati davrida gazeta va jurnallar soni yildan-yilga ortgani, 1930-yillarning birinchi yarmida o'zbek tilida 178 ta gazeta va jurnal nashr etilgani matbuotning tashkiliy jihatdan kengayganini ko'rsatadi. Biroq mahalliy matbuotning dastlabki yillarda moddiy ta'minot, tarqatish va kadrlar masalasida e'tiborsiz qoldirilgani, siyosatdagi mustamlakachilik pozitsiyasi matbuotda ham namoyon bo'lgani mazkur jarayonning ziddiyatli xarakterini ochadi.

Shu bilan birga, ishchi-dehqon muxbiri, devoriy gazeta, qizil burchak va qizil choyxona kabi shakllarning joriy etilishi matbuotning faqat nashr tizimi emas, balki ommani mafkuraviy tashkillashtirish vositasiga aylanganini ko'rsatadi. Xususan, ishchi-dehqon muxbirlari sonining yil sayin ortishi va devoriy gazetalarning "eng muhim tashviqot-targ'ibot vositasi" sifatida qo'llanishi sho'ro matbuotining ommaviy siyosiy safarbarlik mexanizmi sifatida ishlaganini tasdiqlaydi.

Sho'ro matbuoti tashqi jihatdan kengaygan va institusional jihatdan mustahkamlangan bo'lsa-da, uning ichki mohiyati erkin axborot almashinuvidan mafkuraviy nazorat va partiyaviy boshqaruv tizimiga tomon o'zgartirish nazariy jihatdan ko'rib chiqilgan.

Material va metodologiya

Tadqiqot materiali sifatida 1918–1930-yillarda Turkiston(O'zbekiston)da nashr etilgan "Mehnatkashlar tovushi", "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq", "Turkiston", "Qizil O'zbekiston", "Zarafshon" gazetalaridagi maqola, xabar va tahliliy materiallar, shuningdek, Ziyoziddin Saidning "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar" asari, davrga oid partiya qarorlari, syezd materiallari, matbuot xodimlari va ishchi-dehqon muxbirlari harakatiga doir tarixiy manbalar muhim ahamiyatga ega. Mazkur materiallar sho'ro matbuotining dastlabki bosqichini faqat tashkiliy taraqqiyot sifatida emas, balki erkin fikrdan yagona siyosatga o'tish jarayoni sifatida baholash imkonini beradi.

Tadqiqotda bir qancha metodlar qo'llanildi. Tarixiy-xronologik metod orqali 1917-yil oktyabridan keyin Turkiston matbuotida yuz bergan siyosiy va tashkiliy o'zgarishlar bosqichma-bosqich o'rganildi. Bu metod sho'ro matbuotining dastlabki gazetalar paydo bo'lishidan boshlab, 1930-yillar oxirida yagona partiyaviy axborot tizimiga bo'ysundirilishigacha bo'lgan jarayonni izchil kuzatish imkonini berdi.

Tarixiy-qiyosiy metod yordamida jadid matbuoti an'analari bilan sho'ro matbuoti tamoyillari o'rtasidagi farqlar tahlil qilindi. Ayniqsa, erkin fikr, milliy manfaat, ma'rifiy islohot g'oyalariga tayangan matbuotning partiyaviylik, sinfiylik va mafkuraviy nazoratga asoslangan matbuot tizimi bilan almashinishi qiyosiy nuqtayi nazardan baholandi. Kontent-tahlil metodi orqali sho'ro matbuotida tez-tez uchraydigan "ishchi-dehqon", "partiya", "sinfiy kurash", "targ'ibot", "tashviqot", "qizil matbuot", "muxbirlar armiyasi", "devoriy gazeta" kabi tushunchalarning mazmunini yuki tahlil qilindi. Bu matbuot tilida mafkuraviy qoliplar qanday shakllanganini va jurnalistik matnlar orqali omma ongiga qanday ta'sir o'tkazilganini ko'rsatishga xizmat qildi. Tizimli-strukturaviy metod sho'ro matbuotini alohida gazetalar tarixi sifatida emas, balki partiya, davlat

idoralari, nashriyot, bosmaxona, obuna, tarqatish tarmogʻi, ishchi-dehqon muxbiri, devoriy gazeta, qizil burchak va qizil choyxonalar bilan bogʻliq yaxlit mafkuraviy tizim sifatida oʻrganish imkonini berdi. Shuningdek, diskursiv tahlil metodi asosida shoʻro matbuotida erkin fikr, milliy soʻz va mahalliy jurnalistik tashabbusning qanday mafkuraviy til bilan almashtirilgani tahlil qilindi. Bu metod orqali matbuotning tashqi kengayishi bilan ichki mustaqilligining cheklanishi oʻrtasidagi ziddiyat ochib berildi. Umuman, mazkur metodlar tadqiqotda Turkistonda shoʻro matbuotining shakllanishini oddiy nashrlar tarixi sifatida emas, balki erkin fikr maydonining markazlashgan partiyaviy-mafkuraviy axborot tizimiga aylanish jarayoni sifatida ilmiy asosda tahlil qilishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalari Turkistonda shoʻro matbuoti tashkiliy jihatdan kengaygani holda, mazmunan erkin fikr maydonidan markazlashgan partiyaviy-mafkuraviy axborot tizimiga aylanganini koʻrsatadi. Turkistonda shoʻro matbuotining shakllanishi oddiy nashrlar almashinuvi emas, balki matbuotning ijtimoiy vazifasi, tahririy yoʻnalishi va auditoriya bilan munosabati tubdan oʻzgargan murakkab siyosiy-kommunikasion jarayon boʻlgan. 1917-yil oktyabridan keyin avvalgi erkin fikr va milliy-maʼrifiy yoʻnalishdagi matbuot bosqichma-bosqich cheklanib, uning oʻrnini partiyaviylik va sinfiylik tamoyillariga asoslangan shoʻro matbuoti egalladi.

Tadqiqot davomida “Mehnatkashlar oʻqi”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Ishtirokiyun”, “Turkiston”, “Qizil Oʻzbekiston” kabi nashrlar faoliyati misolida dastlabki shoʻro matbuoti mahalliy xalqni yangi hokimiyat gʻoyalari moslashtirish, bolsheviklar siyosatini tushuntirish va ommani mafkuraviy jihatdan qayta tarbiyalash vazifasini bajargani aniqlandi. Bu jarayonda matbuot mustaqil ijtimoiy minbardan koʻra hukumat va partiya siyosatini ommaga yetkazuvchi vositaga aylandi.

Mahalliy matbuotning dastlabki yillarda moddiy-texnik taʼminot, qogʻoz, bosmaxona, tarqatish va kadrlar masalasida jiddiy qiyinchiliklarga duch kelgani ham koʻrsatildi. Ayniqsa, rus tilidagi nashrlarga nisbatan mahalliy tildagi gazetalarga kamroq eʼtibor berilgani shoʻro hokimiyatining dastlabki yillarida ham mustamlakachilik kayfiyati saqlanib qolganini namoyon etadi. 1920-yillardan boshlab matbuotni ommalashtirish siyosiy vazifaga aylantirildi. Majburiy obuna, ishchi-dehqon muxbiri, devoriy gazetalari, qizil burchak, qizil choyxona va klublar orqali gazeta faqat oʻqiladigan nashr emas, balki jamoaviy targʻibot va nazorat vositasiga aylantirildi. Bu esa shoʻro matbuotining taʼsir doirasini kengaytirdi, biroq uning erkin fikr ifodalash imkoniyatini chekladi. Shoʻro matbuotida tashqi

kengayish va ichki qaramlik o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lgani asoslandi. Bir tomondan, gazetalar soni, tiraji, muxbirlar tarmog'i va devoriy nashrlar ko'paydi; ikkinchi tomondan, matbuotning tahririy mustaqilligi, milliy manfaatlarni erkin ifodalash imkoniyati va jadid matbuotiga xos tanqidiy-ma'rifiy ruh tobora susaydi. Turkistonda sho'ro matbuotining shakllanish jarayoni 1930-yillar oxiriga kelib yagona partiyaviy-axborot siyosatiga bo'sundirilgan, markazlashgan va mafkuraviy nazorat ostidagi matbuot tizimi qaror topishi bilan yakunlandi. Shu jihatdan mazkur davr matbuoti o'zbek jurnalistikasi tarixida bir vaqtning o'zida ham institusional kengayish, ham erkin so'z maydonining cheklanishi bilan xarakterlanadi.

Natijalar muhokamasi

Turkistonda bolsheviklar hokimiyatni egallagach yangi tipdagi bolshevistik matbuotni tashkil etish masalasi kun tartibiga qo'yildi. O'zbek tilidagi birinchi sho'ro gazetasi dastlab Samarqandda 1918-yil 11-iyunda "Mehnatkashlar o'qi" nomi bilan Orif Klebleyev tomonidan tashkil etildi. O. Klebleyev oktyabr to'ntarishidan avval Qo'qonda usuli savtiya maktabini ochib muallimlik qilgani sababli Turkiston ziyolilariga tanish edi. "Orif afandi Klebleyev" sarlavhali maqolada "Orif afandi ko'b yillar Xo'qandda muallim bo'lib turg'on bir kishidir. Turkiston bolalarining savodini chiqarishda ancha xizmatlar qilgan. Bu jihatdangina qarag'anda ham Orif afandini xalq kishisi demag'a mumkindir", deyiladi (Muxtoriy 1918).

O. Klebleyev 1918-yil iyun oyida "Mehnatkashlar o'qi" gazetasini tashkil qildi. Gazeta nomini qo'yishda markaz vakili Klebleyevning "Mehnatkashlar o'qi" degan taklifiga Hoji Muin qarshi chiqadi. "Bu ot bir yoqdan arabcha-forscha va o'zbekcha bir kalima bo'lib, boshqa yoqdan "o'q" jiddiy gazetaga nomunosib bir ismdir. "Mehnatkashlar tovushi" qo'yilsun", deydi. Biroq Klebleyev taklifi qabul qilinadi. Gazetaning 3-sonida "Gazeta ismi haqida" degan kichik bir xabar bosilgan bo'lib, unda: "Zahmatkashlar tovushi" ism qo'yilmog'ini sho'rodan o'tindik", deyilgan. "Mehnatkashlar o'qi" gazetasi 5-sondan boshlab "Mehnatkashlar tovushi" degan nom bilan chiqa boshlaydi (Namazova 2023).

Orif Klebleyev Samarqanddan keyin Toshkentga kelib, 1918-yili 21-iyunda "Ishtirokiyun" gazetasining birinchi sonini chiqaradi.

Garchi Samarqandda birinchi bo'lib "Mehnatkashlar o'qi" nomli sho'ro gazetasi tashkil etilgan bo'lsa-da, butun sovet davrida birinchi nashr sifatida "Ishtirokiyun" gazetasi e'tirof etib kelindi. Bu haqda matbuotda "Hamma o'zbek gazetalariga" sarlavhali e'tirozli xabar ham chop etildi. Xabarda "Zarafshon" gazetasining 15-sonida chop etigan maqolada qizil o'zbek matbuotining tarixi 21-iyundan chiqqan "Ishtirokiyun"dan emas,

balki 11-iyunda Samarqandda chiqqan “Mehnatkashlar tovushi”dan boshlanishi kerak degan fikr tanqid qilinadi. “Markaziy firqo‘mning matbuot bo‘limi buni ko‘rib, quyidag‘i qarorg‘a keldi: “Mehnatkashlar tovushi”dan ilgari “Najot”, “Kengash” ham boshqa ko‘b o‘zbek gazetolari chiqq‘on. Bularning hech qaysi qizil matbuot ismiga molik bo‘lmag‘onidan “Mehnatkashlar tovushi” ham qizil matbuotchiga kirmaydir. Negakim, bularning hech qaysi firqaning nashr afkori emas. Firqa nashri bo‘lib chiqqan gazeta “Ishtirokiyun”dir. Shuning uchun haqiqatda qizil o‘zbek matbuotining tarixi 21-iyundan boshlab chiqqan “Ishtirokiyun” gazetasidan boshlanadir. Matbuot bo‘limining mudiri Alimif” (Alimif 1924).

Shundan keyin Namanganda 1918-yil 1-sentyabrdan “Ishchilar qalqoni” gazetasi, Qo‘qonda 1918-yil 4-dekabrda “Xalq gazetasi”, Farg‘onada 1919-yili “Yangi Sharq”, 1921-yili “Mehnat bayrog‘i”, “Farg‘ona”, 1923-yili Andijonda “Darxon”; 1920-yili Xorazmda “Inqilob quyoshi”; “Buxoroda “Buxoro axbori”, 1922-yili “Ozod Buxoro” singari gazetalar chiqarildi (Said 1927).

Ma‘lumotlarga ko‘ra, “1918-yilda Turkistonda o‘zbek tilida 11 ta gazeta chiqar edi” (Qoriniyozov 1958).

Sho‘ro hukumati gazetalar bilan birga jurnalchilikka ham katta e‘tibor qaratdi. Turkistonda ilk bor turli soha va yo‘nalishlarda jurnallar chop etila boshladi. Nashrlar adadi va soni yildan yilga oshib bordi. “O‘ttizinchi yillarning birinchi yarmida o‘zbek tilida 178 gazeta, jurnal nashr etilib, bulardan 90 tasi tumanlarda chiqarilar edi. O‘ttizinchi yillarning ikkinchi yarmiga kelib, 208 gazeta va 45 jurnal chiqa boshlagan” (Saidov 1978).

Sho‘ro hukumati 1920-yildan tashviqot-targ‘ibot ishlariga keng ko‘lamda kirishdi. Turli madaniy ishlar, jumladan, matbuot masalasiga e‘tibor berish lozimligi e‘tirof etila boshlandi. Biroq shu yili o‘tkazilgan matbuot xodimlarining birinchi syezdi matbuot boshqaruvi hali ham mustamlakachilik kayfiyatida bo‘lgan ma‘murlar qo‘lida ekanini ko‘rsatdi. Syezda o‘lkadan uch nafargina musulmon taklif qilindi. Bu hukumatning yerli xalq matbuotiga bepisandligini ko‘rsatar edi. Gazetada chop etilgan maqolada: “...syezd hozirlik ko‘rilmasdan o‘tkazilgani uchun yerli matbuotga nafi oz bo‘lsa kerak, hozirgacha yerli matbuot to‘g‘risida jiddiy muzokara va kengashlar bo‘lmagani kabi bu syezdda ham ustdangina so‘zlab o‘tildi... Hozir matbuot moddiy qisinqilikda...” (Muhammadif 1920), deyilgan.

Syezdda “Matbuot ishlarining to‘g‘ri yo‘lg‘a qo‘yilishi uchun har yerda “tahrir hay‘atlari (literaturniy kallegiyalar) tuzilurga tegishlikin bildirildi”. Syezd firqa, kasaba soyuzlari va boshqa tashkilotlarda adabiy kollegiyalarni vujudga keltirish, markaz va hududlardagi sho‘ro va firqa

mas'ul xizmatchilarini tartibli ravishda gazetalarga muxbirlilik qilib turishga majbur etish, rus matbuotiga eski mustamlakachilikni bitirish uchun tashviqot ishlari bilan shug'ullanish, musulmonlar orasida "savodsizlik ko'b bo'lgani uchun" og'zaki gazetalarni vujudga keltirish, tashviqot ishlarini "yerli xalqning urf odatlari, turmush shartlarina yaqinlashdirub qo'llanurg'a tevish" ("Qizil bayroq" 1920), deb qarorlar chiqardi. Shuningdek, gazeta idoralari o'zlarining muxbirlari orqali firqa apparatidan foydalanishlari kerakligi, har bir muassasada yozuvchilar hay'ati tuzilib, ularning yig'ilishlarida gazetaga berilishi lozim bo'lgan materiallar tekshirilishi kerakligi ta'kidlandi. Shu zaylda matbuot ishiga barcha tashkilotlarni jalb etish harakati boshlandi.

1922-yilga kelib, "matbuotni kuchaytirish" sho'ro hayotidagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Mahalliy matbuotning moddiy tangligi hukumat tomonidan ham e'tirof etildi. "11-sho'rolar qurultoyi "yerlik tillarda chiqqan gazetalarning o'z-o'zlarini moddiy yoqdan ta'min qilishlari hozir mumkin emas, hukumat yordamiga muhtojlar" deb ko'rsatdi. Qurultoy qarorida: "har bir vulast, qishloq ispolqumlari muzofot va markaz gazetalarni yozdirib oldirishlari, gazetalarni mahallalarda tarqatish uchun firqa, sho'ro va boshqa tashkilotlarning ishtiroki bilan matbuot kompaniyalarini o'tkazishi", shuningdek, "Turkiston iqtisodiy sho'rosi, mahalliy ispolqum va iqtisodiy kengash majlislari matbuotni kuchaytirish yo'lida qanday choralar ko'rganliklari to'g'risida bir oy ichida Tursikka hisob topshirishg'a majburlar" deyildi. Shu tarzda matbuotga obuna bo'lish, uni qo'llab-quvvatlash masalasi barcha hukumat va firqa tashkilotlari zimmasiga yuklandi.

1923-yilda chop etilgan "Matbuot fronti" sarlavhali maqolada: "*...Bundan keyin hukumat muassasalari matbuotni tarqatish uchun quruq buyruqlar bilan qolmasun... Firqa a'zolari va mas'ul ishchilar gazetaga mushtariy bo'lib yozilsun va bu ishi bilan boshqalarg'a o'rnak bo'lsun. Gazetalarning obro'sini ko'tarishni o'z vazifasi deb bilsin va har birlari hech bo'lmasa, 15 tadan mushtariy topishni o'zining ulug' ishi va topmasliqni zo'r gunoh deb anglasin*" (Abdulhay 1923), deya ta'kidlaydi.

Shu zaylda matbuotga majburiy obuna qildirish dastlab hukumat tashkilot va idoralari doirasida boshlandi. Faqat obunachi bo'lish emas, balki "Har bir yacheykaning bir xabarchisi va u xabarchining matbuot oshiqi bo'lmog'i" uqtirildi.

Matbuot sotsializm qurilishida, Turkiston xalqining yangi "xalqparvar" hukumatni qo'llab-quvvatlashida eng muhim vosita bo'lib xizmat qilishi uchun gazetani "xalqqa yaqinlashtirish", xalqni gazeta o'qishga o'rgatish lozim edi. Matbuotdan tashviqot vositasi sifatida foydalanishda qator

mone'liklar mavjud edi. Avvalo, xalq gazeta o'qisagina matbuot orqali targ'ibot ishlarini amalga oshirish mumkin edi. Biroq "kambag'al xalq" matbuotdan ancha uzoq edi. Bu haqda *"Turkiston mehnatkash ommasi juda ham keyinda qolg'ondir. Masalan, bir qishloqni hisobg'a olsaq, gazeta o'qush bir yoqda tursun, ko'rmagan, tushunmagan kishilar ko'blab chiqadir"* (Rahim 1924), deya ta'kidlanadi.

Gazetalarda chop etilgan o'nlab maqolalar ikki masalaga: sotsializm qurilishiga ommani jalb qilish uchun matbuotni keng yoyish va bu maqsadga erishishda ishchi-dehqon muxbirlari sonini katta armiya darajasiga yetkazish masalasiga bag'ishlandi.

"Matbuot orqali omma bilan firqa o'rtasidagi aloqa ikki yo'l bilan yuzaga chiqariladi: gazeta doirasiga firqa va sho'ro hukumatining umumiy davlat va ijtimoiy tuzilish ishlariga faol suratda yordam ko'rsatadurg'on o'qug'uvchilar tabaqasini tashkil qilish yo'li bilan; 2) ishchi-dehqon muxbirlarining harakatini tashkil qilish yo'li bilan" (Qizil O'zbekiston" 1925), deb ko'rsatildi

Matbuot targ'iboti sho'ro siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. "Ishchi-dehqon va yoshlar uyushmalariga gazeta hamda jurnallarni o'z vaqtida yetkazib berish, shuningdek, ularni o'z a'zolari orasida muntazam o'qishni tashkil etish vazifasi yuklatilgan edi. *"Xalqni to'plab o'qub berish odat bo'lib qolsun. Shuning bilan birga eski xurofiy kitoblarni dehqonlarning ko'zidan yiroq tashlamoq kerak"* (Anqaboy 1924) degan mafkuraviy-tashkiliy yondashuv boshlandi.

Jamiyatni mafkuraviy jihatdan qayta shakllantirish faqat matbuot orqali emas, balki maxsus madaniy-ma'rifiy muassasalar tizimi orqali ham amalga oshirildi. Klublar, qizil burchak, qizil choyxona, ko'chma qiroatxonalar, xotinlar burchagi singari uyushmalar tashkil etildi.

Sho'ro hukumati jamiyatni yangi mafkura asosida qayta tarbiyalashda barcha tashkiliy ishlarni matbuot bilan bog'lab, yaxlit targ'ibot tizimini vujudga keltirgan. Ayniqsa, qizil burchak va qizil choyxonalarining ishlab chiqarish joylari, yotoqxonalar, qishloq markazlari kabi aholiga yaqin joylarda tashkil etilishi targ'ibot ishlarining bevosita omma ichiga kirib borishini ta'minlagan. Natijada, gazeta o'qish, ma'ruza tinglash, "hangama"larda qatnashish, jamoaviy muhokamalar olib borish majburiy tus olgan.

Shu ma'noda, mazkur muassasalarni matbuotning ta'sir doirasini kengaytirgan qo'shimcha infratuzilma sifatida baholash mumkin. Chunki savodxonlik darajasi past, axborotga mustaqil yetib borish imkoni cheklangan muhitda gazetani omma qo'liga yetkazishning o'zi kifoya emas

edi. Uni o'qib berish, sharhlash, tushuntirish, muhokama qilish va shu orqali siyosiy mafkuraga yo'naltirish talab etilardi. Shu zaylda klub, qizil burchak va qizil choyxonalar matbuot mazmunini jonli muloqot orqali jamoaviy qabul qilishga yordam berdi.

Chekka hududlarda tashviqot-targ'ibot ishlarini olib borishda partiyaning nashr afkori bo'lgan "Turkiston" gazetasi yelkasiga talay vazifalar yuklandi. Gazeta chekka hududlarga maxsus xodimlar yubordi. "... har yerda va har joyda matbuot ahamiyati to'g'risida doqladlar o'qish lozim. Savodsizlar orasida gazeta o'qib eshittirish bir qonun tusini olsun" (Xo'jayev 1923), deb ta'kidlanadi. Gazetalarni o'qib eshittirish yo'lga qo'yildi. Bunday harakatlar o'z natijasini ko'rsatdi. Bu natija matbuotda shunday e'tirof etildi: "*Qaysi bir qizil choyxona yoki qlubga ega qishloqqa borib qolinsa, to'p-to'p bo'lib gazeta o'qib yoki o'qutib eshitib o'ltirg'on dehqonlarni ko'ramiz. Qishloqda ba'zi tuzalishi qiyinroq yoki harakati qing'irroq kishini ko'rsalar, "buni bir gazetaga yozish kerak ekan, gazetaga tushadirg'on bo'libdi", degan so'zlarni eshitamiz. ...Bu gazeta ta'sirini ochiq-oydin ko'rsatadur*" ("Qizil O'zbekiston" 1927). Keltirilgan misollardan ko'rinadiki, gazeta qishloq hayotining kundalik muloqot maydoniga aylana boshlagan. Dehqonlarning to'planib gazeta tinglashi, hatto ayrim kishilarning xatti-harakatini "gazetaga yozish"ga rag'bat uyg'onishi matbuotning ijtimoiy ta'sir doirasi kengayganini ko'rsatadi.

1923-yilda "Pravda" gazetasining ilk soni nashr etilgan sana — 5-may rasmiy ravishda "Matbuot kuni" deb e'lon qilindi. "Matbuot kuni"ni nishonlash sovet davrida an'anaviy tus oldi. "Matbuot kuni" munosabati bilan o'tkazilgan tadbirlarning asosiy yo'nalishi matbuotni rivojlantirish va uning faoliyatini takomillashtirishdan iborat bo'ldi. Bu borada VKP(b) Markaziy Qo'mitasi tomonidan maxsus tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Qilingan sa'y-harakatlar tufayli 1924-yilga kelib, "Turkiston" gazetasining tiraji 500 dan 2500 ga ortdi (Nurmat 1924). Gazetxonlik ma'naviy ehtiyoj emas, balki "o'z sinf va o'z davrining bolasi" bo'lish uchun mafkuraviy burch darajasiga ko'tarildi. Gazeta o'qimagan hukumat a'zosi "o'z sinfiga xiyonat qilgan", ishchi esa "mafkuraviy jihatdan savodsiz" deb qarala boshladi.

Ishchi-dehqon muxbirlari harakati. "Muxbirlar armiyasi"ning tashkil etilishi sho'ro matbuotining o'ziga xos tajribalaridan biri hisoblanadi. RKP(b)ning 1923- yilda bo'lib o'tgan XII s'ezdi "Markazda va joylarda partiya tashkilotlari ishchi muxbirlarni siyosiy jihatdan o'qitish, ularni uyushtirish va umumxalq ishiga jalb qilish yuzasidan choralar ko'rishlari kerak" deb ko'rsatdi. Sho'ro, firqa qurultoylari va hukumat idoralarida chiqarilgan yo'riqnoma va qarorlar gazetalarga yangi ishchi kuchlarini

yetishtirish masalalarini koʻtardi. Matbuotning kamchiligi xalqdan uzoqligi, “xalq oʻrtasida, ayniqsa, qishloqlarda oz tarqalishi, yerlik yoshlarning matbuot ishlariga sovuq qarashlari, gazetalarimizning mahallalar bilan yaxshi va kuchlik aloqa bogʻlay olmasliqlaridir” (F. S.1923) deb tanqid qilindi.

Ishchi-dehqon muxbirlarining “koʻngilli harakati”ni yoʻlga qoʻyish, “qalam otryadi” ni tashkil etish ishlari butun Ittifoqda boʻlgani kabi Oʻzbekistonda ham qizgʻin boshlandi va yilma yil oʻz natijasini koʻrsata bordi.

1924-yili sentyabr oyida oʻzbek ishchi-dehqon muxbirlarining birinchi majlisi oʻtkazildi. Bu haqda “Turkiston” gazetasining 360-sonida “Ishchi-dehqon muxbirlarining bir xabari boshqalarning maqolalaridan qimmat turadir” degan katta sarlavha ostida maqolalar berilgan.

“Tarixiy majlis” sarlavhali maqolada shunday bayonot beriladi: “Oʻtgan may oyidan buyon jiddiy choralar koʻrish natijasida butun Oʻrta Osiyoda muxbirlar sonini koʻpaytirib, gazetani bir daraja mehnatkash ommasiga yaqinlashirib ham uning bilan bir daraja bogʻlay oldiq... Toshkand va yaqin atrofidagi ishchi-dehqon muxbirlarimizni toʻplab, ularni uyushdirishga, muxbirlar harakatining kelgusi vazifalarini belgilab, jiddiy ishga boshlashga muvaffaq boʻldik” (Nurmat 1924). Bu majlisda “Turkiston” gazetasi huzurida muxbirlar byurosi tuziladi. Byuroga joylarda muxbirlar belgilanib, ularning ehtiyojlarini taʼmin qilish, gazetani yuksaltirish, muxbirlarning huquqini mudofaa qilish, ularni uyushdirish, butun Oʻzbekiston muxbirlarining konferensiyasiga hozirlik koʻrish, muxbirlar uchun kurslar ochish kabi vazifalar yuklatildi. Muxbirlar uchun ilk bor turli yoʻl-yoʻriq, qoʻllanmalar yaratish vazifa qilib belgilandi.

Oʻzbekiston SSR tashkil etilganidan keyin matbaa tizimida talay oʻzgarishlar amalga oshirildi. Nashriyotlar hududlararo boʻlindi. Gazetalar nomlari oʻzgardi. K(b)Pning 1925-yil mart oyida boʻlgan I sʼyezdi “Matbuot sohasida” deb atalgan qarorida: “Matbuot organlarimizning qishloq va shaharning keng aholi ommasi bilan aloqa vositasi boʻlgan ishchi muxbirlari, dehqon muxbirlari va yoshlar muxbirlari shahobchalari izchil tashkil qilinib borilsin. Muxbirlar armiyasining madaniy-siyosiy saviyasi va obroʻsi oshirilsin”, deb koʻrsatildi. Shunga koʻra turli yoʻnalishda gazeta va jurnallar tashkil etildi. (Bu haqda keyingi boʻlimda keng maʼlumot beramiz)

Oʻzbekiston Kompartiyasining II syezdi (1925-yil, noyabr) matbuot organlarining “ishchi-dehqon muxbirlari harakatini tashkil etish va rivojlantirish sohasidagi ishlariga partiya rahbarligini kuchaytirish zarur” deb taʼkidlandi. Shu tarzda, 1925-yilga kelib, “muxbirlar harakatini katta ijtimoiy harakatga aylantirish lozimligi” keng daʼvat qilindi.

O‘zbekistonda ishchi-dehqon muxbirlari harakatini tashkiliy va g‘oyaviy jihatdan shakllantirish “Pravda vostoka” va “Qizil O‘zbekiston” gazetasining zimmasiga yuklandi.

Shunga ko‘ra, 1925-yilda “Qizil O‘zbekiston” redaksiyasida muxbirlarni tayyorlash uchun ruknlar ochildi. “Muxbirlarga tarbiya” nomli ruknda sentyabrdan boshlab bir oy ichida 15 ga yaqin maqola bosildi. Maqolalarda gazeta ishchi-qishloq muxbirlarining uyushmalarini tashkiliy jihatdan qanday tuzish, muxbirlarning yozish ko‘nikmasini oshirish, muxbirning burchlarini tushuntirish hamda muxbirlar harakatining umumiy ahvolini aniqlash masalalariga e‘tibor qaratildi.

VKP(b) Markaziy Komitetining 1926-yilda “Partiyaning ishchi-qishloq muxbirlari harakati sohasidagi navbatdagi vazifalari to‘g‘risida”gi maxsus qaroridan keyin noyabr oyida O‘zbekistonda ishchi-dehqon muxbirlarining birinchi s‘ezdi bo‘lib o‘tadi.

“Muxbirlar qurultoyining qarorlarini amalga oshirish yo‘lida “Qizil O‘zbekiston” gazetasi qoshida muxbirlar bilan aloqani mustahkamlash, rahbarlik va tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish uchun muxbirlar bo‘limi tashkil qilindi.

Ko‘rilgan kengmiqyosli chora-tadbirlar natijasida Ittifoqda ishchi-dehqon muxbirlari 1924-yilda 100 ming bo‘lsa, 1926 -yil oxirida 250 mingga yetadi, O‘zbekistonda ishchi dehqon muxbirlari milliy matbuotda 6500 nafar chamalanadi (Qodirif 1927). 1932-yil oxiriga kelib, SSSRdagi ishchi-dehqon muxbirlarining soni 3,5 milliondan oshib ketdi (Saksanbaev 1933).

Devoriy gazetalar sho‘ro matbuotining yana bir muhim tajribalaridan biridir. Ishchi-dehqon muxbirlari harakatida devoriy gazetalardan samarali foydalanildi. Sotsializm qurilishida devoriy gazetalar eng muhim tashviqot-targ‘ibot vositasi bo‘lishi, yangi mafkura bilan qurollangan muxbirlar armiyasini shakllantirishda ular boshlang‘ich maktab vazifasini o‘tashi ko‘zda tutildi. “Devoriy gazetalar bir tomondan matbuotga o‘quvchilar yetishtirsalar, ikkinchi tomondan yozuvchilarni, ya‘ni ommanining eng yaxshi tabaqasidan muxbirlar yetishtiradilar” (Nurmat 1926), deyildi.

Ziyo Said: *“Devoriy gazeta buyuk O‘ktabr o‘zgarishining bizga bergan eng totli samarasidir”*, deb yozadi (Said 1927).

Matbuotda devoriy gazetalarni tashkil etish, boshqarish bo‘yicha ko‘rsatmalar berib boriladi. 1925-yilda chop etilgan maqolada devoriy gazetaning vazifalari: *“Zavod, fabrikalarda, konlarda, hukumat muassasalarida ishchilar bilan idoralar o‘rtasidag‘i, qishloqlarda dehqonlar bilan hukumat o‘rtasidag‘i munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lg‘a*

qo'yish”, “*eski turmushning qolg'on-qutqanlarig'a, savodsizlikka, diniy xurofotlarga qarshi kurashish, "yangi turmushning yo'llarini", "firqa, hukumatning hamma farmon, buyruq, qonun va tadbirlarini amalga o'tkazishga, ayniqsa, har xil kompaniyalarda xalqqa kompaniyaning maqsad va vazifalarini, ahamiyatini tushuntirishga yordam ko'rsatish*”, “*omma o'rtasida tashviqot-targ'ibot yurgizib, ularni firqa, hukumat atrofiga uyushdirish*” singari ishlar ko'rsatilgan (Nurmat 1926).

Maqola muallifi devoriy gazetalarni rivojlantirish maqsadida shaharlarda va tumanlarda ularning ko'rgazmalarini tashkil etish, nashr etilgan sonlarni jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish, keng omma orasida devoriy gazetalarning mazmun-mohiyatini targ'ib etish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u 5-may — Matbuot kuni munosabati bilan, devoriy gazetalarning tashkil topganiga 2–3 yil to'lishi arafasida yoki ularning 50-va 100-sonlari nashr etilganda majlislar, kechalar hamda turli musobaqalar o'tkazishni ushbu nashrlarni rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida taklif etadi.

Bu taklifning ijrosi 1926 yili amalga oshganini kuzatish mumkin. Toshkentda 5-yanvardan 20-yanvargacha devoriy gazetar ko'rgazmasi o'tkazilgan. 20-yanvarda Samarqandda o'tkazilgan maorif xodimlarining qurultoyi munosabati bilan ko'rgazma Samarqandga ko'chirilgan. Ko'rgazmada g'olib gazetar mukofotlangan: “*Binokorlar yacheykasidan chiqadig'on "Yosh ishchilar" gazetasiga 1 yillik "Qizil O'zbekiston" hamda "Kommunist" jurnali bilan 48 taxta katta qog'oz, bir shisha siyoh, 2 quti rang, cho'tka ham qalam, "Xotun qizlar ovozi" gazetasiga 4 oyliq "Qizil O'zbekiston" ham "Kommunist" jurnali, 12 taxta qog'oz, bir shisha siyoh, cho'tka ham rang, kashshoflarning "Qizil alanga" gazetasiga 8 taxta katta qog'oz, bir shisha siyoh ham bir qalam berildi...*” (N. 1926).

Toshkentda Eski shaharda chiqadigan devoriy gazetalarni boshqarib borish uchun byuro saylanadi. Komiljon Alimov byuro rahbari etib tayinlanadi.

“*1926-yili o'tkazilgan muxbirlar qurultoyidan keyin muxbirlar ko'payib, devoriy gazetar kutilmagan darajada hamma yerda chiqa boshladi. Tashkilotlardan, katta mahallalarda devoriy gazeta chiqarishga, xabarchilik qilishga ommada harakat kuchaydi*”(Qizil O'zbekiston” 1927). Devoriy gazetaga yozib turuvchi muxbirlarni ko'paytirish, klub, qiroatxona, Lenin burchagi, qizil choyxona va oqartish uylarida devoriy gazetalarning ko'rgazmalarini tashkil etish kabi ishlarni qilish vazifa qilib belgilandi.

Ziyo Said devoriy gazetalarga o'sha davrda firqa va katta gazetar rahbarlik qilganini yozadi. Uning ta'kidlashicha, Kommunistlar firqasining: “*Firqa ham komsomul yacheykasining shahar va qishloqdag'i eng muhim*

ishlaridan bittasi devoriy gazeta ishlarini uyushdirish bo‘lishi kerak”, degan ko‘rsatmasidan keyin “devoriy gazeta chiqarish ishi shunday muhim o‘run tutdikim, qaysi bir uyushmannig devoriy gazetasi bo‘lmasa, ul uyushmaning ishi sustga o‘xshash ko‘rinadurg‘on bo‘ldi... Yoza biluvchilargina emas, hatto yozishni bilmaganlar ham boshqalarg‘a yozdirib o‘z tilaklarini gazetalarga yuboradirlar. Bu bilan qishloq o‘zining jonsiz devolidan o‘z kamchiligini eshitadurg‘on, unga qarab yetishsizliklarini tuzatadurg‘on bo‘ldi. Bugina emas, ijroqum raisi qishloq talabini bir chekkaga irg‘itib turib, uloq chopishg‘a, gap yeyishga, to‘y-tomoshalarda o‘ynab yurishga “jonsiz devor”dan hayiqadurg‘on bo‘ldi. Shunday qilib, o‘lkamizda o‘ktabrda ilgarigi 2 ming soqov devol hozirg‘i kunlarda tilga keldi... 2000 adad devoriy gazeta yangi tilaklar bilan maydong‘a chiqdi” (Said 1927).

1928-yildan devoriy gazetalar qoshida ishchi muxbirlari to‘garaklarini tuzish keng avj oldi. Devoriy gazetaga qo‘yiladigan talablar: u ommaning “eng pastki tabaqasiga bag‘ishlang‘on” bo‘lishi; maqolalar bosilgan vaqtiga taalluqli bo‘lishi; “kichik jumlar bilan yozilib, shu jumla ko‘b ma‘no anglatadurg‘on” bo‘lishi; “har masalada siyosiy jihatdan ommaga yaqin” bo‘lishi; “texnik jihatdan uncha katta bo‘lmasin (chap tomondan o‘ng tomong‘a uzun bo‘lsa ham, ammo pastdan yuqorig‘a tomon bir-bir yarim gaz bo‘lsa yaxshidir); “unda har kimning e‘tiborini jalb qiladurg‘on shiorlar bo‘lishi”; “odamlar ko‘broq yuradurg‘on yo‘llarig‘a devorg‘a qo‘yilishi”; “qaerda chiqa, o‘sha yerdagi odamlarning hammasi ishtirok etishi” lozim deb belgilandi (Nurmat. 1926).

Shuningdek yana: “Viloyat va markaziy gazetalarga muxbirlar yetkarib berishda zo‘r o‘run tutqon devoriy gazetalar hozirg‘i vaqtda yaxshilab ildiz otmoqda. Biroq bu o‘shish devoriy gazetalarning son jihatig‘a bo‘lib sifat yog‘idan qoniqarliq emas”ligini ta‘kidlaydi (Valiev 1926).

1927-yilda VKP(b) O‘rta Osiy byurosining plenumida qilingan ma‘ruzada Toshkentning o‘zida yuzga yaqin devoriy gazeta borligi, biroq bu borada kamchiliklar mavjudligi ko‘rsatib o‘tildi.

Matbuotda devoriy gazetalarga rahbarlik ishlariga e‘tiborsizlik doimiy tanqid qilib borildi.

Matbuotning lenincha “hech kimni yuz xotir qilmasdan” fosh etuvchilik prinsipi kuchga kirgan sari muxbirlarga tahdidlar ko‘paydi. 1927–1929-yillarda matbuotda muxbirlarga qilingan hujumlar haqida ko‘plab maqola, sud ocherklari chop etildi. Muxbirlar hayotiga tahdidlardan tashqari tanqidiy material yozgani uchun muxbirni ishdan bo‘shatish, ish lavozimini pasaytirish, partiya, komsomol, kasaba soyuz a‘zolidan o‘chirish, nohaq

sud javobgarligiga tortish, saylov huquqidan mahrum qilish kabi ta'qib ostiga olishlar kuchaydi.

O'zbekiston ziyolilarining ikkinchi Qurultoyida Markazqo'm matbuot sho'ba mudiri Nabi Qodirov buni alohida qayd etib o'tadi: *"Muxbirlarg'a bo'layotg'on hujum faqat xususiy kishilar va bezorilar tomonidan emas, tuppa-tuzuk mas'ul ishchilar bu to'g'rida o'zlarining qanday dushman ekanliklarini op-ochiq ko'rsatadirlar... "Qizil O'zbekiston" gazetasi Sultonoboddag'i ba'zi chatoqliklar to'g'risida yozilg'on xabarni tekshirish uchun shu yerning firqa raykumiga yubordi. O'sha vaqtda raykumning vaqtincha mas'ul kotibi bo'lib turg'on ijroqum raisi Jumaboev muxbirning kim ekanini bilgandan keyin uni chaqirtiradi. "Ha, bolshovoylar, endi qalaysizlar? Gazetaga yana xabar yozasizlarmi?" deb muxbirni boylab haqorat qiladi. Firqa raykumiga mas'ul kotib bo'lib turg'on kishining muxbirga qarab "ha, bolshovoy" deb xitob qilishi juda kulgu bir narsa"* (Qodirif 1929). Matbuotda muxbirlarga hujum qilgan kimsalarga turli jazolar ko'rilgani yoritib borildi. Jumladan, bir maqolada ishchi-dehqon muxbirlariga hujum qilgan rayon firqumi a'zolari qamalgani yoziladi. Yana bir maqolada faol dehqon muxbirlaridan Nizomxo'ja Muhammadiy o'g'lini o'ldirganlar ustidan o'tkazilgan sud hukmi yoritilgan. Sud hukmiga ko'ra qotillarning bir nechasi *"kelgusida jamiyat uchun zararli unsurlar bo'lg'oni sababidan eng oliy jazo, ya'ni otib o'ldirishga, barcha mol-mulklarini hukumat foydasig'a musodara qilishg'a", bir necha nafari "10 yildan qattiq qamoqqa, mol-mulklarining yarmini hukumat foydasig'a musodara qilishg'a va qamoq muddatini bitirib chiqqandan keyin 5 yilga grajdanliq huquqidan mahrum qilishg'a", yana bir necha nafari "8 yildan qattiq qamoqqa" hukm qilindi* (Qizil O'zbekiston" 1928).

Tahdidlardan qo'rqib, muxbirlar "Qizil O'zbekiston" gazetasi xodimlariga murojaat qilgan holatlar ham bo'lgan. Gazetada 1929-yili chop etilgan maqola shu haqda: *"Har kun deyarlik hujumga uchrag'onliq to'g'risida dehqon muxbirlaridan o'nlab arizalar olinmoqda... Xavos rayunining faol muxbirlaridan Karim Qosim bir firqa tozalash oldidan bir muncha yasama firqa a'zolarining sirlarini ochib berdi... xabarlari bosilib chiqqandan keyin material Tshokrug firqa kuntrul kamissiyasiga yuborildi. Okrugdan bu qo'lyozma materiallar Xovos rayun firqo'mig'a, bundan 17- bo'lim xalq tergovchisining qo'lig'a tushdi. Rayun tergovchisi vazifasini ado etguvchi Xudoyqul Boboev gazetada yozilg'on shaxslarning yaqin do'stlari. Ular Boboev orqali kim yozg'onlig'ini aniqlab oldilar. Boyog'i muttahamlar rasta-ko'chalarda Karimni ko'rib "qalamingiz o'tkur ekan" degan sassiq so'zlar tashlab yuradilar. Yaramaslarning harakati faqat bebro' qilish, haqorat etish bilan tugamaydi. 5-iyul kechasi ular Karim Qosimnig uyiga kirib o'ldirishga chog'laydilar. Lekin ulgura olmasdan, bitta boltani*

tashlab chiqib ketadilar. Rayun xalq tergovchisi “boshqa kelgan balo”ni tezrak daf qilish uchun Karim Qosimni ishdan bo‘shatadi. Shunday qilib Karim Qosim ishdan olinadi va uning hayoti tahlika ustida qoladi. Bu ishlarni ko‘rgan Qosim o‘zining o‘lum oldida turg‘onini ko‘rib, ko‘rpayostig‘ini ko‘tarib idoramizga keldi. Bir haftadan beri choyxonalarda kun ko‘rib kelmakda. Bizning qat‘iy va keskin talabimiz bor: ishchi-dehqon muxbirlarini mudofaa qilish ishlariga sovuq qarovchilar to‘g‘ridan to‘g‘ri bizning dushmanlarimizdir. Ularning gazetada chiqqan muttahamlarning panjasidan ozod qilish kerak” (Yo‘ldosh 1929), deb ta’kidlaydi.

Bunday tahdidlarga qat‘iy choralar ko‘rish, jurnalistlarni himoya qilish orqali matbuot va muxbirlar obro‘si, ta’sir kuchi oshirildi.

Shunday qilib, *“to‘ralik, jinoyatlar, xiyonatlar va shunga o‘xshash qing‘ir-qiyshiqliqlar bilan kurashishda ishchi-dehqon muxbirlari katta vazifalarni bajardilar” (Ahmadjon 1927).*

1933-yilga kelib devoriy gazetalar soni 10 mingga yaqinlashgani ularning sho‘ro mafkurasi uchun keng qamrovli tashviqot-tushuntirish vositasiga aylanganini, xalq ustidan ideologik nazoratni kuchaytirishda muhim o‘rin tutganini ko‘rsatadi.

Nashrlarni joylarga yetkazish masalasi sho‘ro matbuoti tashkil etilgan dastlabki yillardan boshlab muammo sifatida ko‘tarildi. Matbuot nashrlari *“ispolko‘mlar arxivida, pochxada chang bosib yotishi” (Yunus 1921) tez-tez tilga olindi. Bu ishlarning noto‘g‘ri amalga oshiralayotgani tanqid qilingan maqolada: “Yana qosh tuzataman deb ko‘z chiqarish ham yaramaydir. Yana bu yerda “Pravda vostoka” o‘rtog‘imizning bir oz noto‘g‘ri harakatini aytib o‘tmakchimiz. U ham bo‘lsa, shu o‘rtog‘imizning so‘ngg‘i no‘merlarida qishloqqa gazeta oldiring deb chaqirilib turg‘on turlik chaqirishlarining yozilib turg‘oninin ko‘ra boshladiq. Hech bo‘lmasa, ozg‘ina o‘ylash kerakki, rus tilining “pochum-zachum”larini ham bilmaydurg‘on o‘zbek qishlog‘ig‘a tarqatish yaramaydur. Bunday qilib gazetalarimizning sonini oshiradiring‘on bo‘lsalar, oshirmag‘onlari ham yaxshiroqdir. Bunday bo‘lsa bu tiraj haqiqiy bo‘lmaydir, buni sun‘iy tiraj deyishga to‘g‘ri keladir” (Komiljon 1925).*

Iqtiboslardan ko‘rinadiki, sho‘ro matbuotining dastlabki bosqichdagi asosiy muammosi faqat nashr sonini ko‘paytirish emas, balki uni o‘quvchi qo‘liga yetkazish masalasi ham bo‘lgan. Matbuotni tarqatishda faqat son ortidan quvish, hisobot uchun tirajni sun‘iy ko‘paytirishga urinish kuzatilgan. Gazeta bosishning o‘zi hali o‘quvchini shakllantirish degani emas. O‘quvchini shakllantirish uchun matbuot xalqning tiliga, saviyasiga, ehtiyojiga va kundalik hayot muhitiga mos kelishi lozim. Qishloqlarga rus tilini bilmaydigan aholiga shu tildagi gazetalarni ko‘paytirib tarqatish

matbuotning sun'iy statistik o'sishini ta'minlagan, xolos. Tiraj ko'rsatkichi bilan matbuotning real ta'sir doirasi o'rtasidagi jiddiy tafovutni sho'ro matbuoti rivojining ichki ziddiyatlaridan biri sifatida baholash mumkin. Holbuki, matbuotning samaradorligi va ijtimoiy ta'siri uning chop etilgan nusxalari soni bilan emas, balki axborotning qanchalik keng auditoriyaga yetib borgani hamda o'quvchilar tomonidan qabul qilingani bilan belgilanadi.

Shunday qilib, gazetalarga obuna bo'lish amaliyoti asta-sekin majburiy tus olib, turli hududlarga keng yoyildi. Buni mahalliy matbuot materiallari ham tasdiqlaydi. Xususan, "Xo'jandda gazeta tarqatish ishi" sarlavhali xabarda 1925-yil 25-may kuni Xo'jandda partiya va yoshlar tashkilotlarining umumiy yig'ilishlari o'tkazilgani, unda badan tarbiyasi hamda matbuot masalalariga bag'ishlangan ma'ruzalar tinglangani qayd etiladi. Matbuot masalasiga oid qarorlarda "har bir firqali va komsomol o'rtoqlarni gazetalarga mushtariy bo'lishlari majburiy" ekani belgilangan. Shuningdek, partiya va komsomol a'zolarining omma orasida gazetachilikni targ'ib etishlari ham majburiy vazifa sifatida ko'rsatilgan

Olib borilgan axborot siyosati muayyan natijalar berdi. Bu jarayon natijasida matbuot tizimi jadal sur'atlarda rivojlanib, uning faoliyati va qamrovi sezilarli darajada kengaydi. Stalin ta'biri bilan aytganda, "partiyaning eng o'tkur va kuchli quroli bo'lgan matbuot kunlabgina emas, balki soatlab o'sdi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Turkistonda sho'ro matbuotining shakllanishi milliy matbuot tarixida oddiy tashkiliy yangilanish emas, balki erkin fikr maydonining markazlashgan partiyaviy-mafkuraviy axborot tizimiga bosqichma-bosqich bo'ysundirilishi jarayoni sifatida namoyon bo'ldi. Bolsheviklar hokimiyatni egallagach, avvalgi xususiy va milliy nashrlar yopilib, ularning o'rnida yangi tipdagi sho'ro matbuotini tashkil etish kun tartibiga qo'yildi; "Mehnatkashlar o'qi", "Mehnatkashlar tovushi", "Ishtirokiyun" kabi dastlabki nashrlar ana shu jarayonning ilk ko'rinishlari bo'ldi. Dastlabki yillarda mahalliy sho'ro matbuoti tashqi jihatdan yangi hokimiyatning "xalqparvar" siyosatini targ'ib qilgan bo'lsa-da, amalda uning moddiy-texnik ta'minoti, qog'oz, bosmaxona, tarqatish va kadrlar masalalari markaziy idoralar tomonidan yetarlicha qo'llab-quvvatlanmadi. Bu holat sho'ro hokimiyatining dastlabki bosqichida ham milliy matbuotga munosabatda mustamlakachilik kayfiyati saqlanib qolganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, 1920-yillardan boshlab matbuotni "kuchaytirish" shiori ostida gazetalarni ommalashtirish, majburiy obuna, ishchi-dehqon muxbiri, devoriy gazeta, qizil burchak va qizil choyxona kabi mexanizmlar joriy

etildi. Natijada matbuot faqat axborot yetkazuvchi vosita emas, balki ommani mafkuraviy tarbiyalash, siyosiy nazorat qilish va partiya siyosati atrofida uyushdirish tizimiga aylandi. Turkistonda sho‘ro matbuoti 1930-yillar oxiriga kelib yagona partiyaviy axborot siyosatiga bo‘ysundirilgan, markazlashgan va mafkuraviy nazorat ostidagi matbuot tizimi sifatida qaror topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Avloniy A. Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi. — T.: O‘zRFA “Qatag‘on qurbonlari muzeyi”, 2015. — 35 b.

Said Ziyoy. Burung‘i vaqtli matbuot tarixiga materiallar. — Samarqand: O‘zbekiston Davlat nashriyoti, 1927. — 48 b.

Namozova N. Hoji Muin — ma‘rifat va istiqloq fidoyisi. — Toshkent: Ta‘lim-Media, 2023. — 120 b.

Saidov O. Satira tili bilan. — Toshkent: O‘zbekiston, 1978. — 96 b.

Qoriniyozov T. N. Sovet O‘zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar. — Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti, 1958. — 140 b.

Qoriyev B. 20-yillar o‘zbek sovet adabiyotining asosiy xususiyatlari (Shu davr jurnallari materiallari asosida): filol. fan. nom. ... diss. — Toshkent, 1967. — 165 b.

Matbuot manbalari

Abdulhay. Matbuot fronti // Turkiston. — 1923. — 3-fevral.

Alimif. Hamma o‘zbek gazetalariga // Turkiston. — 1924. — 11-iyun.

Ahmadjon. Muxbirlar qurultoyidan keyingi masalalar // Qizil O‘zbekiston. — 1927. — 18-yanvar.

Bahlulzoda. Xo‘jandda gazeta tarqatish ishi // Qizil O‘zbekiston. — 1925. — 2-iyun.

Komiljon. Dovul urayliq, 25 mingga yetkazaylik // Qizil O‘zbekiston. — 1925. — 2-avgust.

Muin H. Samarqand matbuoti tarixi // Zarafshon. — 1923. — 5-may.

Muxtoriy Shokir. Orif afandi Klebleev // Mehnatkashlar tovushi. — 1918. — 20-iyun.

Muhammadif. Yerli tillarda matbuot ishlari // Qizil bayroq. — 1920. — 21-dekabr.

Nurmat. Sekin bo‘lsa ham ilgari bosamiz // Turkiston. — 1924. — 11-iyun.

Nurmat. Devoriy gazetalar // Qizil O‘zbekiston. — 1926. — 27-oktabr.

N. Devoriy gazetalar ko‘rgazmasi // Qizil O‘zbekiston. — 1926. — 17-fevral.

- Saksanbaev Zudin. Bolshevik matbuotining ish sifati baland ko‘tarilsin // Qizil O‘zbekiston. — 1933. — 5-may.
- Yo‘ldosh Ya. Muxbirlarga hujum avj oldi // Qizil O‘zbekiston. — 1929. — 22-iyul.
- F. S. Yerli matbuot // Turkiston. — 1923. — 5-may.
- Xo‘jayev N. Matbuotning taraqqiysi nima bilan bo‘lur // Turkiston. — 1923. — 7-noyabr.
- Qodirif N. O‘ktabr va matbuot // Maorif va o‘qituvchi. — 1927. — № 11. — B. 38.
- Yunus G‘. O‘zbek matbuotining holi // Qizil bayroq. — 1921. — 16-sentyabr.
- Matbuot xodimlarining syezdi // Qizil bayroq. — 1920. — 19-dekabr.
- Matbuot va uning xizmati // Qizil O‘zbekiston. — 1925. — 2-avgust.
- Matbuot kunida qishloqning tilagi // Qizil O‘zbekiston. — 1927. — 8-may.
- Birinchi muxbirlar seminariyasi // Qizil O‘zbekiston. — 1927. — 8-may.
- Muxbir Nizomxo‘jani o‘ldirganlar o‘lim jazosiga // Qizil O‘zbekiston. — 1928. — 27-dekabr

References

- Avloniy, A. (2015). *Burung‘i o‘zbek vaqtli matbuotining tarixi* [The history of the early Uzbek periodical press]. O‘zRFA “Qatag‘on qurbonlari muzeyi”.
- Said, Z. (1927). *Burung‘i vaqtli matbuot tarixiga materiallar* [Materials on the history of the early periodical press]. O‘zbekiston Davlat nashriyoti.
- Namozova, N. (2023). *Hoji Muin – ma‘rifat va istiqloq fidoyisi* [Hoji Muin – a devotee of enlightenment and independence]. Ta‘lim-Media.
- Saidov, O. (1978). *Satira tili bilan* [With the language of satire]. O‘zbekiston.
- Qoriniyozov, T. N. (1958). *Sovet O‘zbekistoni madaniyati tarixidan ocherklar* [Essays from the history of the culture of Soviet Uzbekistan]. O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti.
- Qoriyev, B. (1967). *20-yillar o‘zbek sovet adabiyotining asosiy xususiyatlari (Shu davr jurnallari materiallari asosida)* [Main characteristics of Uzbek Soviet literature of the 20s (Based on materials from journals of that period)] (Doctoral dissertation). Toshkent.

Press Sources

- Abdulhay. (1923, February 3). Matbuot fronti [The press front]. *Turkiston*.
- Alimif. (1924, June 11). Hamma o‘zbek gazetalariga [To all Uzbek newspapers]. *Turkiston*.
- Ahmadjon. (1927, January 18). Muxbirlar qurultoyidan keyingi masalalar [Issues after the correspondents' congress]. *Qizil O‘zbekiston*.
- Bahlulzoda. (1925, June 2). Xo‘jandda gazeta tarqatish ishi [The work of newspaper distribution in Khujand]. *Qizil O‘zbekiston*.
- Komiljon. (1925, August 2). Dovul urayliq, 25 mingga yetkazaylik [Let's strike the drum, let's reach 25 thousand]. *Qizil O‘zbekiston*.
- Muin, H. (1923, May 5). Samarqand matbuoti tarixi [History of the Samarkand press]. *Zarafshon*.
- Muxtoriy, Sh. (1918, June 20). Orif afandi Klebleev [Orif Afandi Klebleev]. *Mehnatkashlar tovushi*.
- Muhammadif. (1920, December 21). Yerli tillarda matbuot ishlari [Press work in local languages]. *Qizil bayroq*.
- Nurmat. (1924, June 11). Sekin bo‘lsa ham ilgari bosamiz [Even if slowly, we will move forward]. *Turkiston*.
- Nurmat. (1926, October 27). Devoriy gazetalar [Wall newspapers]. *Qizil O‘zbekiston*.
- N. (1926, February 17). Devoriy gazetalar ko‘rgazmasi [Exhibition of wall newspapers]. *Qizil O‘zbekiston*.
- Saksanbaev, Z. (1933, May 5). Bolshevik matbuotining ish sifati baland ko‘tarilsin [Let the quality of work of the Bolshevik press be raised high]. *Qizil O‘zbekiston*.
- Yo‘ldosh, Y. (1929, July 22). Muxbirlarga hujum avj oldi [The attack on correspondents intensified]. *Qizil O‘zbekiston*.
- F. S. (1923, May 5). Yerli matbuot [Local press]. *Turkiston*.
- Xo‘jayev, N. (1923, November 7). Matbuotning taraqqiysi nima bilan bo‘lur [What will bring the progress of the press]. *Turkiston*.
- Qodirif, N. (1927). O‘ktabr va matbuot [October and the press]. *Maorif va o‘qituvchi*, (11), 38.
- Yunus, G‘. (1921, September 16). O‘zbek matbuotining holi [The state of the Uzbek press]. *Qizil bayroq*.

Matbuot xodimlarining syezdi [Congress of press workers]. (1920, December 19). *Qizil bayroq*.

Matbuot va uning xizmati [The press and its service]. (1925, August 2). *Qizil O'zbekiston*.

Matbuot kunida qishloqning tilagi [The wish of the village on Press Day]. (1927, May 8). *Qizil O'zbekiston*.

Birinchi muxbirlar seminariyasi [The first seminar of correspondents]. (1927, May 8). *Qizil O'zbekiston*.

Muxbir Nizomxo'jani o'ldirganlar o'lim jazosiga [Death penalty for those who killed correspondent Nizomkhoja]. (1928, December 27). *Qizil O'zbekiston*.